



## BARLOS URUG'INING SHAKILLANISH TARIXI VA JOYLASHUVI

**Turdiyev Ilyos Ulug'bek o'g'li**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasida tatqiqodchisi

**Annotatsiya:** Bu maqolada o'zbek xalqi tarkibidagi eng katta va qadimiy etnik guruhlardan biri bo'lgan barlas urug'ining o'rganilishi, barlas atamasining kelib chiqishi, barlas urug'ining tarmoqlari, ularning O'zbekiston hududiga va unga tutash hududlarga kelib joylashuvi bo'yicha mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Urug', Qabila, Barlos, alq, etnogenez, etnik tarix, turkiy, Shayboniylar, Oltibachcha, Ozibachcha.

O'zbeklarning etnik tarkibi batafsil tahlil qilinsa uning tarkibida qipchoq komponentining asosini ko'rish mumkin. Masalan, Barlas etnonimi Chingizxon davridan ma'lum. Rashid ad-dinning yozishicha, Chingizxon o'z o'g'li Chag'atoyga ajratgan to'rt ming kishilik qo'shin, barlaslardan iborat [1, 398-b] va ular ham jaloirlar kabi asli mo'g'ul qabilasidan bo'lgan "barulos"lar bo'lib, mo'g'ul tilidan tarjima qilinganda barulos "qalin, kuchli" degan ma'noni anglatadi. Bu shuningdek, "qo'mondon, rahbar, jasur jangchi" degan ma'noni anglatadi va qabila a'zolarining harbiy jasorati bilan bog'liq edi. Agar XIII asrning 30-40-yillarda barlas va jaloirlarda mo'g'ullarga xos belgilar bo'lgan bo'lsa, XIV asr 60-70-yillarga kelib ularning har ikkisi ham turkiylashuv jarayonini boshidan kechirgan [1, 398-b]. Ular birinchi navbatda, turkiy shevalarni o'zlashtirishgan, shuningdek, hududdagi mahalliy turkiy aholi bilan o'zaro assimilyatsiya jarayoniga kirgan. Barloslar asosan Qashqadaryo va bir qismi Jizzax viloyatining Baxmal tumanida joylashgan.

Sangzor vohasida ko'chmanchi o'zbek urug'laridan farqli o'laroq, asosan Chig'atoy ulusi (1224-1370) va Temuriylar (1370-1501) davridagi siyosiy va etnomadaniy jarayonlar mahsuli bo'lmish "barlos", "mo'g'ul", "turk" (Baxmal turklari, Usmat turklari, Zomin turklari) o'zbek xalqi shakllanish jarayonining Shayboniylardan oldingi kezlari tegishli bo'lib, ular asosan tog' yonbag'irlarida yashaganlar. Garchi ushbu urug'lar "92 bo'li o'zbek" urug'i sifatida XVI asrdayoq tilga olinib boshlagan bo'lsalar-da, ularning Dashti Qipchoq bilan aloqasi unchalik uzviy bo'lmay, ko'chmanchi o'zbeklarning urug' tizimidan birmuncha farq qilgan.

Barloslar Qashqadaryo vohasiga XIV-asrning birinchi yarmida kelib joylashdilar. Ular o'zi ham barlas qabilasidan bo'lgan va ularga homiylik qilgan Amir Temur davrida boshqa hududlarga tarqala boshlagan. Ma'lumki, uning vafotidan keyin ham barlaslar temuriylar davlatlarida sharaflari mavqeni egallaganlar. Xususan, ularning bir qismi Bobur bilan birga uning



qo'shinlari Dashti-Qipchoq o'zbeklari tomonidan mag'lubiyatga uchragach, Hindistonga yo'l oladi[1, 398-b]. XVI asrda Barlaslar Amudaryoning o'ng va chap qirg'og'ida yashagan. Bu vaqtga kelib, bu qabila unga boshqa qabilalarning qo'shilishi hisobiga o'sib bordi, chunki bu qabila bilan ittifoq tuzish obro'li hisoblangan. Ammo keyinchalik Shayboniylar hokimiyati o'rnatilgach, barlaslar o'z mavqeini yo'qotdilar.

Buxoro xonligi davrida barlaslarning bir qismi o'z nomini va an'anaviy ichki birligini saqlab qolgan holda yarim ko'chmanchi turmush tarzini saqlab qolgan va chorvachilik bilan shug'ullanishda davom etgan. Bu, asosan, qabila a'zolari o'rtasida nikoh tuzishda, shuningdek, barlas qabilasining a'zolarining o'ziga xos "tashrif qog'ozi" bo'lib xizmat qilgan o'ziga xos notiqlik qobiliyatida namoyon bo'ldi. Samarqand viloyatiga yaqin joylashgan Shahrisabz baraslari, aksincha, ajdodlari Hisorda uzoq vaqt yashab, so'ng o'z ona yurtlariga – Qashqadaryo vohasiga qaytgan, deb hisoblaydi. Yuqori Tarag'ay (Qashqadaryo) qishlog'i aholisi o'rtasida tarqalgan rivoyatga ko'ra, ular o'tmishda bu yerlarni tashlab Hisorga ketishgan va u yerdan faqat XIX asr boshida qaytishgan. Boshqa manbalarga ko'ra, XVIII asr o'rtalarida Mang'it Muhammad Rahim 20 mingga yaqin barlas oilasini Samarqand va Shahrisabz hududlariga ko'chirdi[2, 342-b].

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ikki xil turdagi barlaslar – oltibachcha va kalxofizi bor. Oltibachiyalar olti aka-ukadan kelib chiqqanligi aytiladi. Shuningdek qozibachcha, pulatbachcha, oqsoqbachcha, nematbachcha kabi urug' va qabilalar ham mavjud. 1926-yildagi tumanlashtirish ma'lumotlariga ko'ra, Yuqori Qashqadaryoda 710 barlas[2, 342-b] qayd etilgan bo'lib, ular Sayot, Xasantepa, Ommagon, Toshqaloq, Ayoqchi, Xonaqa, Tarag'ay qishloqlarida yashagan. Bu qishloqlarda tolibbachcha, qozibachcha, ne'matbachcha kabi qabilalar yashagan[2, 342-b].

Hozirda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida barlos etnik nomlari saqlanib qolgan, biroq O'zbekistonning boshqa viloyatlarida barlos nomi faqat etnotoponim shaklida uchraydi, masalan, Surxondaryoning Sariosiyo tumanidagi Barlas qishlog'i. Qashqadaryo viloyatining Qatag'on qishlog'idagi qatag'onlarning kichik bir guruhi o'zlarini barlaslardan deb biladi va yashash joylarini Barlasto'p deb ataydilar. Barlas shevasi o'zbek tilining qarluq-chigil shevasiga mansub bo'lib, ko'p jihatdan o'zbek tilining shahar shevalariga yaqin[3]. Shu bilan birga, qipchoq shevalarida qisman uchraydigan belgilar bu shevaning lisoniy xususiyatlariga xosdir. Ammo qipchoq shevasi shahar shevalariga mansub bo'lmagani uchun, ehtimol, barlas shevasi qarluq-chigil va qipchoq shevasi oralig'idagi sheva, ya'ni o'zbek tili shevasining alohida turiga mansubdir[4, b. 543].

O'zbek barloslari yuqori maqomga ega edilar. Ular barlos haqida "mardikorga bormas" (ya'ni, u kunlik ishchi sifatida ishlashga ketmaydi) deb aytishgan. Sariosiyo viloyatining O'rta Ko'ruk qishlog'idan bo'lgan eski o'zbek Barlos Botir boboning aytishicha, barlosni hech kim



mardikorlikka undashi mumkin emas va barloslarning o'zlari bu ishlarda qatnashishni uyatli deb bilishadi[5, 182-b]. Baxmal tumanidagi Barlas qishloq fuqarolar yig'ida dala tadqiqotlari o'tkazganimizda 2025-yil 20-dekabr xolatiga ko'ra qishloqda 7075 nafar aholi yashab shundan oilalar soni 1810 tani, xonadonlar soni 1202 tani tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 398.
2. Шаниязов, К.Ш. К этнической истории узбекского народа К.Ш.Шаниязов.- Ташкент: Фан, 1974.- 342 с.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Barlos>.
4. Языки мира - Бишкек: Кыргызстан, 1997.- Т.2: Тюркские языки.- 543 с.
5. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 182.